



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2025- YIL YANVAR-FEVRAL

DASTLABKI MA'LUMOT

NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI STATISTIK BAHOLASH BO'YICHA
O'TKAZILGAN KUZATUVLAR NATJALARINI QO'SHGAN HOLDA

Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

Qurilish korxonalari soni


2025-yil 1-mart holatiga, birlikda

2025-yil 1-mart holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 122 tani tashkil etdi. Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 372 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 33,2 % i Navoiy shahrida joylashgan.

Navoiy sh	372
Karmana t	208
Qiziltepa t	180
Navbahor t	89
Zarafshon sh	76
Nurota t	67
Xatirchi t	52

Konimex t	27
Tomdi t	20
Uchquduq t	17
G'ozg'on sh	14

Qurilish korxonalari soni, birlikda



Qurilish sohasida faoliyat korsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2025-yil 1-mart holatiga, birlikda




Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2025-yilning yanvar-fevral oylarida, Navoiy viloyatida jami 1 134,8 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ni tashkil etdi.


Bajarilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-fevral oylarida hajmi, mlrd soʻmda



Bajarilgan qurilish ishlari hajmining oʻsish surʻati

yanvar-fevral oylarida, % da



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

Navoiy viloyatida qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida, xususan, Navoiy shahri (189,9 mlrd so'm), Tomdi tumani (188,5 mlrd so'm) va Qiziltepa tumani (111,7 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

Yanvar-fevral oylarida

O'sish sur'ati % da

Hajmi mlrd so'mda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,1% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,6% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,3% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 135,1% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,6% ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 152,6% ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati


yanvar-fevral oylarida, % da



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi

yanvar-fevral oylarida



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 81,3 % i yoki 922,8 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 270,4 mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 29,3 % ni tashkil etdi.

29,3 %

270,6
mlrd so'm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 415,8 mlrd so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 45,1 % ni tashkil etdi.

45,1 %

415,8
mlrd so'm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 236,4 mlrd so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 25,6 % ni tashkil etdi.

25,6 %


236,4
mlrd so'm



Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

2025-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Navoiy shahri (163,7 mlrd so'm), Tomdi tumani (159,5 mlrd so'm) va Qiziltepa tumani (71,7 mlrd so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda




Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,6 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,3 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,5 % punktga kamayib 39,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga ko'payib, 35,2 % ni tashkil etdi.


Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi – 852,8 mlrd so'm



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumani (99,2%), Navbahor tumani (98,3%) va G'ozg'on shahar (97,3%) kuzatildi.

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar-fevral oylarida, % da



Uchquduq tumani

99,2



Navbahor tumani

98,3




Tomdi tumani

97,3

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 32,0 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 19,5 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 19,5 % punktga kamayib 68,0 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari va ulushi *yanvar-fevral oylarida*




Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Navoiy shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 38,3 % i), Konimex tumani (29,6 %) va Nurota tumani (23,4 %) da kuzatildi.

Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



Fuqarolik obyektlari qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar-fevral oylarida, % da



38,3
Navoiy shahar



29,6
Karmana tumani



23,4
Nurota tumani


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi va 3,8 % ni tashkil etdi.


Qolgan 96,2 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

yanvar-fevral oylarida




Jamiga nisbatan ulushi (% da)



Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Navoiy shaharda (16,6%), Zarafshon shaharda (15,0%) va Konimex tumani (11,8%) kuzatildi.

Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar-fevral oylarida, % da



16,6
Navoiy shahari




15,0
Zarafshon shahari



11,8
Konimex tumani

Qurilish ishlari hajmining tarkibi


yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati


yanvar-fevral oylarida, % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2024-yil mos davriga nisbatan **138,4 %**

2024-yil mos davriga nisbatan **102,9 %**

2024-yil mos davriga nisbatan **102,7 %**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 284,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 138,4 % ni va ularning ulushi 25,0 ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi

yanvar-fevral oylarida, % da



Hududlar kesimida jamida ulishi % da

yanvar-fevral oylarida




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Tomdi tumani (83,2 %), Uchquduq tumani (78,6 %), Konimex tumani (29,6 %) va qayd etildi.

Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan
yanvar-fevral oylarida, % da



Tomdi tumani



Uchquduq tumani




Konimex tumani

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,5% i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,4% punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,9% ni tashkil etgan holda 550,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi

yanvar-fevral oylarida, % da




Hududlar kesimida jamida ulishi % da yanvar-fevral oylarida




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (93,3%), Qiziltepa (90,3%) va Navoiy shahar (68,2%) to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi *yanvar-fevral oylarida, mlrd so'm*



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan *yanvar-fevral oylarida, % da*



93,3

Zarafshon shahri



90,3

Qiziltepa tumani



68,2


Navoiy shahar

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 26,5 % ni yoki 300,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,7% ni tashkil etdi. Shundan 179,8 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 56,6 mlrd so'mni va 102,8 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 64,2 mlrd so'mni va 103,4 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmining jamiga nisbatan ulushi

yanvar-fevral oylarida, % da



Hududlar kesimida jamida ulishi % da


yanvar-fevral oylarida



Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Xatirchi tumanida (34,1 mlrd so'm), Karmana tumanida (31,8 mlrd so'm) va Navbahor tumanida (20,2 mlrd so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori hajmga ega bo'lgan hududlar yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



34,1
Xatirchi tumani



31,8
Karmana tumani



20,2
Navbahor tumani

Yanvar-fevral oylaridagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 13,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 121,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 1,2 % va 98,8 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun:

Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichlari Navoiy shahrida (189,9 mlrd.so'm), Tomdi tumanida (188,4 mlrd.so'm) Qiziltepa tumanida (111,7 mlrd.so'm), va Zarafshon shaharda (107,9 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.